

**ATROF-MUHIT VA TABIATNI MUHOFAZA QILISH  
TEXNOLOGIYALARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJASINI BERUVCHI PhD.18/2025.27.12.T.01.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**ATROF-MUHIT VA TABIATNI MUHOFAZA QILISH  
TEXNOLOGIYALARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**RUZIYEVA IRODA DAVUTOVNA**

**QATTIQ MAISHIY CHIQINDILARNI BOSHQARISH TIZIMINI  
OPTIMALLASHTIRISH VA ATROF-MUHITGA TA'SIRINI  
KAMAYTIRISH (TOSHKENT SHAHRI MISOLIDA)**

**11.00.05 – Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari falsafa (PhD) doktori dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi****Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по техническим наукам****Contents of dissertation abstract of the of doctor of philosophy (PhD) on  
technical sciences****Ruziyeva Iroda Davutovna**

Qattiq maishiy chiqindilarni boshqarish tizimini optimallashtirish va atrof-  
muhitga ta'sirini kamaytirish (Toshkent shahri misolida)..... 3

**Рузиева Ирода Давутовна**

Оптимизация системы управления твердыми бытовыми отходами  
и снижение их воздействия на окружающую среду (на примере города  
Ташкента)..... 25

**Ruziyeva Iroda Davutovna**

Optimization of the Solid Municipal Waste Management System and  
Reduction of Its Environmental Impact (Case Study of Tashkent City)..... 49

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 53

**ATROF-MUHIT VA TABIATNI MUHOFAZA QILISH  
TEXNOLOGIYALARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJASINI BERUVCHI PhD.18/2025.27.12.T.01.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**ATROF-MUHIT VA TABIATNI MUHOFAZA QILISH  
TEXNOLOGIYALARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**RUZIYEVA IRODA DAVUTOVNA**

**QATTIQ MAISHIY CHIQINDILARNI BOSHQARISH TIZIMINI  
OPTIMALLASHTIRISH VA ATROF-MUHITGA TA'SIRINI  
KAMAYTIRISH (TOSHKENT SHAHRI MISOLIDA)**

**11.00.05 – Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2024.1.PhD/T308 raqami bilan ro'yhatga olingan.

Dissertatsiya ishi Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) veb-sahifada "ecoilm.uz" va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>Buriyev Salimjan Samedjanovich</b> qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Musayev Marufdjan Nabiyevich</b> texnika fanlari nomzodi, professor <b>Xankelov Tavbay Karshiyevich</b> texnika fanlari doktori, professor
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>Toshkent kimyo-texnologiya instituti</b>

Dissertatsiya himoyasi 2026-yil 15 06 soat 15 da Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti (Green University) huzuridagi Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutidagi PhD.18/2025.27.12.T.01.01 raqamli Ilmiy kengash yig'ilishida bo'lib o'tadi. Manzil: 111104, Toshkent viloyati, Toshkent tumani, Darxon qo'rg'oni, Chimkent yo'li ko'chasi, 2-uy. Kontaktlar: tel.: (77) 782-27-17; e-mail: eco\_ilm@umail.uz.

Dissertatsiya bilan Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti (Green University) huzuridagi Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. Manzil: 111104, Toshkent viloyati, Toshkent tumani, Darxon qo'rg'oni, Chimkent yo'li ko'chasi, 2-uy. Kontaktlar: tel.: (77) 782-27-17; e-mail: eco\_ilm@umail.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «01» 06 da tarqatildi.

(2026 - yil «01» 06 dagi 16/03 raqamli reyestr bayonnomasi).

  
**B. A. Pulatov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor.

  
**O. G. Ergashev**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiykengash ilmiy kotibi, t.f.d., k.i.x.

  
**Sh. O. Muradov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor.



## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda qattiq maishiy chiqindilar muammosi insoniyat oldida turgan eng muhim ekologik va ijtimoiy masalalardan biriga aylanib, uni qayta ishlash uchun atrof-muhitga zarar etkazmaydigan energiya-resurstejamkor texnologiya va texnika vositalarini qo'llash yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. "Hozirgi kunda dunyo bo'yicha o'rtacha 2,01 milliard tonna qattiq maishiy chiqindilar tashlanmoqda, 2050-yilga kelib bu ko'rsatkich 3,4 milliard tonnaga yetishi kutilmoqda"<sup>1</sup>. Bu esa qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlashni va atrof-muhitga zarar etkazmaydigan zamonaviy texnologiyalarni amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan chiqindilarni qayta ishlash uchun ish sifati yuqori hamda energiya-resurstejamkor texnika vositalari va texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda qattiq maishiy chiqindilarni noto'g'ri yig'ish, tashish va saqlash oqibatida yuzaga keladigan ekologik muammolar - atrof-muhit, tuproq va suv resurslarining ifloslanishi, atmosferada zararli moddalarning ortishi hamda aholi salomatligiga salbiy ta'sirlarni kamaytirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar faol olib borilmoqda. Ushbu izlanishlar chiqindilarni boshqarish me'yorlarini takomillashtirish, tasniflangan texnologiyalar va yangi ilmiy-texnik yechimlarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan. Bu borada chiqindilarni boshqarish tizimini optimallashtirish nafaqat shahar ekologik holatini yaxshilash, balki chiqindilarni saralab yig'ish va qayta ishlash orqali iqtisodiy samaradorlikka erishish, xomashyo hajmini oshirish, energiya resurslarini tejash hamda yangi ish o'rinlarini yaratish imkonini beradi. Shu bois, chiqindilarni qayta ishlashning texnologik jarayonlari va me'yorlarini ilmiy asoslashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqish xizmatlari bilan qamrab olish darajasini 90 foizga, chiqindilarni qayta ishlash darajasini 7 foizga oshirish, qayta ishlashda ya'ni yoqib, muqobil energiya ishlab chiqariladigan chiqindilar ulushini 20 foizga yetkazish, maishiy chiqindi poligonlarini kamida 50 foizga qisqartirish imkonini beradigan resurstejamkor texnika va texnologiyalarni ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. "2019-2028 yillar davrida O'zbekistonda qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"<sup>2</sup> qarori, jumladan, "aholining qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar bilan to'liq qamrab olinishini ta'minlashga yo'naltirilgan sanitariya jihatidan tozalash infratuzilmasini rivojlantirish, qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlashning samarali va zamonaviy tizimini yaratish, poligonlarga olib chiqib ketish tizimini takomillashtirish, qattiq sanitariya va ekologik me'yorlar talablariga muvofiq keladigan zamonaviy qattiq maishiy chiqindi me'yorlarini ishlab chiqish, shuningdek, mavjud shaharlardagi chiqindilarni poligonlarga tizimli yo'naltirish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rish" bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarini amalga oshirishda,

<sup>1</sup> <https://yuz.uz/uz/news/jahon-miqyosidagi-muammo-chiqindilar-tabiatga-yuz-yillab-zarar-etkazadi>.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-apreldagi PQ-4291-son qarori.

jumladan, “nol chiqindi” tamoyili asosida maishiy chiqindilarni shaharlardan olib chiqish, qayta ishlash va ulardan ekologik toza energiya va boshqa mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarini qamrab olgan ekosanoat zonalarni joriy etish, chiqindilarini to‘plash, saqlash, tashish, saralash, joylashtirish, qayta ishlash va me‘yorlarini hisoblash kabi jarayonlarning tamoyillarini yaratish, chiqindi qutilarini avtomatlashtirish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-apreldagi PQ-4291-son “2019-2028 yillar davrida O‘zbekistonda qattiq maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-fevraldagi 95-son “Chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi<sup>1</sup>, hamda 2018-yil 2-oktyabrdagi 787-son “Maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi ishlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-yanvardagi PF-5-son “Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta‘sirini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining IV “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, suv muammolari, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Maishiy chiqindilarni boshqarish, ularni atrof-muhitga salbiy ta‘sirining oldini olish ilmiy-uslubiy jihatlari xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, L.Ya.Shubov, A.I.Golovanov, V.N.Pryaxin, D.P.Gostishchev, V.I.Smetanin, A.Ye.Kasyanov, F.Sissot, I.Kyun, D.Vulf va boshqalar chiqindilarni boshqarish va utilizatsiya qilish bilan bog‘liq texnologik jarayonlari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib bordilar. Mahalliy olimlardan T.I.Iskandarova, R.A.Atajanova, G.I.Malixina qattiq maishiy chiqindilarning to‘planish me‘yorlari va morfologik tarkibini o‘rganishgan.

Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish, poligonlarni joylashtirish va chiqindilarning morfologik tarkibini tahlil qilish bo‘yicha keng ko‘lamli ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Xususan, Hoornwyeg va Bhada-Tata (Jahon banki, 2018) tomonidan dunyo bo‘yicha maishiy chiqindilar hosil bo‘lish sur‘ati va 2050-yilgacha bo‘lgan prognoz tahlil qilingan. D.C.Wilson, C.Velis (2015) ishlarida esa chiqindilarni boshqarishning integral modellari va ekotizimlarga ta‘sir darajasi ilmiy asoslangan.

Ammo qattiq maishiy chiqindi (QMCH)ning to‘planish me‘yorlari va morfologik tarkibi 1997, 2004, 2011-yillarda respublika bosh sanitariya vrachi tomonidan tasdiqlangan “Sanitariya qoidalari va me‘yorlar”ida aholida hosil

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-fevraldagi 95-son qarori

bo‘ladigan QMCHning to‘planish me‘yorlari va tarkibiy qismlarining ulushi o‘zgarishsiz holda qayta tasdiqlangan. Sohada turar-joy fondi va alohida jamoat obektlari, savdo va madaniyat muassasalari uchun QMCHning hisobi va axborot tizimini yuritishni nomukammalligi, chiqindilarni boshqarishda atrof-muhitga yetkazilgan sal‘biy ta‘sirlar uchun to‘lovlar joriy tizimi mavjud emasligi QMCHning to‘planish me‘yorini va morfologik tarkibini o‘rganish zarurligini ko‘rsatmoqda. Maishiy chiqindilarni hisoblash va qayta ishlash usullari, ularni kamaytirishga va ikkilamchi resurs sifatida maishiy chiqindilardan foydalanishga asoslangan tadqiqotlar yetarlicha olib borilmagan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi topshiriqlari hamda Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, 2018-yil 3-maydagi №11/02-2018-son va 2024-yil 28-oktabrdagi №18/2024-son “O‘zbekiston Respublikasi hududlarida qattiq maishiy chiqindilarning to‘planish me‘rlarini aniqlash bo‘yicha eksperimental tadqiqot va xronometraj ishlarini o‘tkazish” mavzusidagi amaliy loyihalar doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Toshkent shahridagi qattiq maishiy chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish orqali atrof-muhitga bo‘ladigan salbiy ta‘sirni kamaytirishga qaratilgan ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Toshkent shahridagi qattiq maishiy chiqindilarni boshqarish tizimining hozirgi holatini o‘rganish va tahlil qilish;

qattiq maishiy chiqindilar (QMCH)ni yig‘ish, to‘plash, tashish jarayonlari va ularning tarkibiy tuzilishini o‘rganish;

uy-joy va noturar joy obektlarida QMCHni hisobga olishning uslubiy asoslarini ishlab chiqish;

Toshkent shahri misolida QMCHni to‘planish me‘yorlari va ularning morfologik tarkiblarini o‘rganish hamda tahlil qilish;

Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obekti** sifatida Toshkent shahardagi qattiq maishiy chiqindilar, chiqindi yig‘ish maydonchalari, poligonlar, chiqindilarni to‘planish me‘yorlari va fraksiyalarga ajratishning texnologik jarayonlari va uni amalga oshiradigan mexanizmlar olingan.

**Tadqiqot predmeti** uy-joy va noturar joy obektlaridagi qattiq maishiy chiqindining ikkilamchi resurslari (qog‘oz, shisha, plastmassa, metallar, yog‘och va x.k.) miqdori, tarkibini aniqlash, saralash, qayta ishlashni takomillashtirish, qattiq maishiy chiqindi poligoni predmet sifatida olingan.

**Tadqiqot usullari.** Maishiy chiqindilar logistikasi usuli, chiqindilarni qayta ishlash sxemasi, chiqindilardan samarali foydalanish bo‘yicha indikator yaratishda normativ hujjatlaridan foydalanilgan. Shuningdek tadqiqotning asosiy usullari eksperimental tadqiqotlar, QMCH miqdor va tarkibni baholash va tahlil qilish,

tadqiqotning asosiy yo‘nalishlari eksperimentni amalga oshirishda kompleks yondashuv, algoritmlar va yig‘ish usullarini yaratish, birlamchi ishlov berish shuningdek, maishiy chiqindi poligonlari yerlari hisobini yuritish, monitoring qilish, geostatistik tahlillar qilish, obektlarni geofazoviy bog‘lash, kartografik shartli belgilar tanlash, masofadan zondlash, algoritmlash, interpolyasiya, kodlash hamda axborotlarni raqamlashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

QMCH hosil bo‘ladigan turar-joy fondi, jamoat obyektlari, savdo va madaniyat muassasalarida chiqindilarning to‘planish me‘yori hisobini yuritish, chiqindilar to‘planish ko‘rsatkichlarini prognoz qilish va atrof-muhitga yetkaziladigan zararni baholash tizimi ishlab chiqilgan.

Qattiq maishiy chiqindilarni saralash va qayta ishlash jarayonlarini joriy qilish orqali chiqindilar hajmini optimallashtirish hamda poligonlardan xavfsiz foydalanish va ularning xizmat muddatini uzaytirish tizimi takomillashtirilgan.

Toshkent shahrining geografik joylashuvi, aholi soni, ijtimoiy holatlarini inobatga olgan holda, qattiq maishiy chiqindining to‘planish me‘yorlari va morfologik tarkibini aniqlashning hisoblash usuli takomillashtirilgan.

Maishiy chiqindilarning morfologik tarkibini hisobga olib, hududlar uchun qattiq maishiy chiqindini qayta ishlash texnologiyalarini hududlar kesimida tanlash jarayonining tarkibiy modeli ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

Qattiq maishiy chiqindilar to‘planish ko‘rsatkichlarini prognoz qilish hamda atrof-muhitga yetkaziladigan ekologik zararni baholash uchun me‘yoriy-uslubiy asos ishlab chiqilgan.

chiqindilarni manba joyida saralash, ikkilamchi xomashyoni ajratish va ularni qayta ishlash uchun innovatsion texnologik yechim ishlab chiqilgan.

Toshkent shahrida chiqindilar to‘planish me‘yorlari va ularning morfologik tarkibini aniqlash bo‘yicha tadqiqotlarni amalga oshirish uchun metodik blok-sxema ishlab chiqilgan.

Maishiy chiqindilarning morfologik tarkibi asosida hududlar uchun mos texnologiyalarni tanlash imkonini beruvchi matematik-tahliliy model yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalari ishonchliligi Ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi hamda Toshkent shahar “Maxsustrans” unitar davlat korxonasi va Toshkent shahar ekologiya boshqarmasi materiallardan foydalanish asosida takomillashtirilgan uslub va tavsiyalar Toshkent shahar hokimligi va Sog‘liqni saqlash vazirligi bilan kelishilgan holda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi amaliyotida joriy etilganligi va vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qattiq maishiy chiqindi to‘planish me‘yorlarini aniqlash hamda morfologik tarkibini tahlil qilish, chiqindilar to‘planish hajmini prognoz qilish va atrof-muhitga yetkaziladigan zarar darajasini baholash uchun me‘yoriy-uslubiy asos yaratilgan. Qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash texnologiyasini tanlashda

chiqindilarning morfologik tarkibiga asoslangan tizimli tahlil modeli ishlab chiqilgan bo'lib, u ekologik va iqtisodiy jihatdan maqbul yechimlarni aniqlash, chiqindilarni boshqarish sohasida ekologik xavfsizlikni oshirish, chiqindilar oqimini kamaytirish va ikkilamchi resurslardan samarali foydalanish bo'yicha yangi ilmiy yondashuvlarni shakllantirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati chiqindilar to'planish me'yorlarini hisoblash, ularni monitoring qilish va prognozlash imkonini beruvchi maxsus axborot-analitik tizim ishlab chiqilgan va sinovdan o'tkazilgan. Toshkent shahri misolida chiqindilarni saralash, qayta ishlash va poligonlardan xavfsiz foydalanish bo'yicha samarali texnologik yechimlar ishlab chiqilgan. Chiqindilarni yig'ish, saralash va qayta ishlash tizimlarini hududiy-iqlimiy va infrastrukturaviy sharoitlarga mos holda rejalashtirish imkoniyati ta'minlangan. Chiqindilarni qayta ishlash korxonalari faoliyatini optimallashtirish, logistika va transport xarajatlarini kamaytirish hamda ekologik monitoring tizimini takomillashtirish ilmiy jihatdan asoslab berilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Qattiq maishiy chiqindilarni boshqarish tizimini optimallashtirish va atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari:

qattiq maishiy chiqindilarni to'planish me'yorini hisobini yuritish, prognoz qilish hamda atrof-muhitga yetkaziladigan zararni hisoblash usuli ishlab chiqilib, Toshkent shahar Ekologiya boshqarmasiga qarashli chiqindixonalarda joriy etilgan. (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish iqlim o'zgarishi vazirligidan 2025-yil 8-avgust 03-03/1-03/3-7851-sonli ma'lumotnoma). Natijada chiqindilar hajmini yil davomida 10-15 % aniqlikda oldindan baholash imkoniyati vujudga kelgan.

Toshkent shahrining geografik joylashuvi, aholi soni, ijtimoiy holatlarini inobatga olgan holda, qattiq maishiy chiqindining to'planish me'yorlari va morfologik tarkibini aniqlash usuli ishlab chiqilib, Toshkent shahar Ekologiya boshqarmasi tizimida joriy etilgan (Toshkent shahar ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasining 2024-yil 20-maydagi 01-03/02-2356-sonli ma'lumotnomasi). Natijada Toshkent shahar boshqarmasining ish faoliyatida yuridik shaxslardan chiqindilarni joylashtirganlik uchun belgilangan tartibda kompensatsiya to'lovlari undirish, shahar chiqindixonalarini samarali monitoring qilish imkoniyati yaratilgan.

qattiq maishiy chiqindilar hisobini yuritish, ularni yig'ish, tashish va joylashtirish xizmatlari uchun ishlab chiqilgan me'yorlar hamda tariflarni belgilash tizimi Toshkent shahar "Maxsustrans" DUK faoliyatiga tatbiq etilgan (korxonaning 2024-yil 15-maydagi 02-04/02-1025-sonli amaliyotga joriy etish to'g'risidagi dalolatnomasi). Tadqiqotning ushbu natijalari Toshkent shahrini chiqindilarsiz rivojlantirishning bosh rejasini shakllantirishda asosiy poydevor bo'lib xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya ishining asosiy ilmiy natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tgan. Ilmiy-tadqiqot ishining asosiy natijalari Atrof-muhit va

tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti Ilmiy Kengashi yig'ilishlarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan 3 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan, xalqaro konferensiyada 3 ta, respublika miqyosidagi konferensiyalarda 2 ta tezislar va 2 ta monografiya chop etilgan, 2 ta EHM dasturga guvohnoma olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va xajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 129 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya ishining **Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning O'zbekiston va jahondagi zaruriyati hamda dolzarbligi asoslangan, ishning maqsadi va vazifalari, ob'yekt va predmetlari shakllantirilib, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ochib berilgan. Olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyatlari asoslangan, ishning aprobatsiyasi va natijalarining joriy qilinishi, hajmi va tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning "**Qattiq maishiy chiqindilar va atrof-muhitga ta'sirini o'rganilganlik darajasi**" deb nomlangan **birinchi** bobida qattiq maishiy chiqindilarning atrof-muhitga ta'sir doirasini va ularni ikkilamchi resurs sifatida qayta ishlash va undan foydalanish imkoniyatlariga doir nazariy va amaliy izlanishlarning analitik tahlili keltirilgan.


Ma'lumotlarga ko'ra, har bir inson kun davomida o'rtacha 1-1,5 kg atrofida maishiy chiqindi hosil qiladi. Dunyo miqyosida bu ko'rsatkich taxminan 2 milliard tonna chiqindiga teng bo'lib, chiqindilar miqdori yil sayin ortib bormoqda. O'zbekiston sharoitida aholi sonining o'sishi va shaharlashuv jarayonlarining kuchayishi hisobiga yiliga o'rtacha 7-7,5 mln tonna qattiq maishiy chiqindi hosil bo'lmoqda, 2030-yilga borib esa bu ko'rsatkich 16 mln tonnadan oshishi kutilmoqda.

Qattiq maishiy chiqindilarning morfologik tarkibini aniqlash, chiqindilar hosil bo'lish miqdorini prognoz qilish, ularning qayta ishlash texnologiyalarini takomillashtirish va iqtisodiy samaradorligini baholash bo'yicha ilmiy ishlar soni juda kam. Mavjud manbalarda asosan umumiy tavsifiy ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, amaliy yondoshuvlar va ilmiy asoslangan uslubiy tavsiyalar yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Jahon tajribasi tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, texnogen va maishiy chiqindilarni ikkilamchi resurs sifatida qayta ishlash bo'yicha Yevropa Ittifoqi mamlakatlari (xususan, Germaniya va Niderlandiya), Yaponiya, Janubiy Koreya hamda Skandinaviya davlatlari ilg'or natijalarga erishgan. Ushbu mamlakatlarda

chiqindilarni yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan ikkamchi xomashyo sifatida foydalanishning huquqiy hamda iqtisodiy mexanizmlari aniq belgilangan.

Chiqindilardan ikkilamchi resurs sifatida foydalanish masalalari hozirgi kunga qadar to‘liq yechimini topmagan. Dunyo mamlakatlarida qattiq maishiy chiqindilarning (QMCH) utilizatsiya qilinishi bo‘yicha ma’lumotlar 1-rasmدا keltirilgan.



**1-rasm. Dunyo mamlakatlari bo‘yicha qattiq maishiy chiqindilarni utilizatsiya qilishning qiyosiy ko‘rsatkichlari (foiz hisobida)**

(Manba: Milliy hisobot (1988–2007). Toshkent. 93-b.)

Diagramma ma’lumotlariga ko‘ra, jahon miqyosida chiqindilarni utilizatsiya qilishda ularni poligonlarga (chiqindixonalarga) joylashtirish ulushi o‘rtacha 53,9 % ni, kuydirish texnologiyalarini qo‘llash 31,0 % ni, kompostlash (organik o‘g‘it olish) jarayoni esa 5,4 % ni tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasida chiqindilarni samarali boshqarish va qayta ishlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo‘lib, ular sohadagi islohotlarning huquqiy poydevorini shakllantirgan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-apreldagi “2019–2028-yillarda qattiq maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ–4291-son qarori sohada uzoq muddatli strategik yo‘nalishlarni belgilab berdi. Ushbu hujjat chiqindilarni yig‘ish, tashish, qayta ishlash va utilizatsiya qilish tizimini bosqichma-bosqich modernizatsiya qilishni ko‘zda tutadi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 15-dekabrda “Toshkent shahrida maishiy va qurilish chiqindilari bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4925-son qarori poytaxt miqyosida namunaviy chiqindilarni boshqarish tizimini joriy

etishni nazarda tutadi.

Olingan ilmiy manbalar tahlili shundan dalolat beradiki, jahon ilmiy maktablari va yetakchi olimlar chiqindilarni ilmiy asosda boshqarish, ulardan ikkilamchi resurs sifatida foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari bo'yicha keng qamrovli tavsiyalar ishlab chiqishgan. Xususan, E.S. Sxovrebov, G.V. Chetvertakov, S.I. Shkanov, A.X. Alasxanov, L.L. Aksenova, Ye. Ivanov, P.P. Oleynik, S.P. Oleynik, M.N. Samuseva, T.I. Shishelova, S.Yu. Kokryaskiy, T.G. Galimzyanova, Ye.V. Shilova, B.V. Jdanovskiy, S.A. Sinenko, I.M. Miroshnikova, M.F. Kujin, M.S. Bibik kabi olimlar chiqindilarni boshqarishning ilmiy, muhandislik va ekologik yo'nalishlarini rivojlantirishda muhim ilmiy tavsiyalar taklif etganlar.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda qurilish chiqindilaridan samarali foydalanish, tabiiy inert materiallar zahiralari asrash, ikkilamchi resurslarni qayta ishlash va iqtisodiy-ekologik toza texnologiyalarni joriy etish bo'yicha A.A. Yuldashev, X.L. Pulatov, F.B. Igitov, U.L. Sharipova, X.X. Aminov, R.M. Madrimov, F.T. Yuldashev, F.Sh. Xudoyberdiyev, M.M. Ergashev va boshqa olimlar chiqindilarni ikkilamchi resurs sifatida qayta foydalanish, geoaxborot tizimlar asosida chiqindi poligonlarini joylashtirish va ularning ekologik ta'sirini baholash bo'yicha ilmiy asoslangan ishlar amalga oshirganlar.

X.T. Tursunov va M.M. Tasbovov tomonidan qattiq maishiy chiqindilarni (QMCH) boshqarish masalalari O'zbekiston misolida tadqiq etilgan bo'lib, ularning ishlarida QMCH bilan bog'liq ekologik muammolar, chiqindilarni joylashtirish va ulardan samarali foydalanish istiqbollari atroflicha tahlil qilingan. Mualliflarning fikricha, chiqindilarni tizimli boshqarishga qaratilgan chora-tadbirlar mamlakatda atrof-muhit va inson salomatligiga bo'ladigan salbiy yuklamani kamaytiradi, shuningdek, ikkilamchi xomashyo manbalarini jalb etish hamda muqobil energiya olish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Aynan ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar tahlili asosida mazkur dissertatsiya ishining maqsad va vazifalari belgilab olindi.

Dissertatsiyaning "**Tajriba-tadqiqot obyekti**" deb nomlangan **ikkinchi bobida** qattiq maishiy chiqindilarni boshqarishning hozirgi holati, qattiq maishiy chiqindilarni eksperimental xronometraj tadqiqot ishlarini tashkil etish, o'tkazish, qattiq maishiy chiqindilarning to'planish me'yorlarini hisoblash usullari yoritilgan.

Shaharning janubiy qismida, Toshkentdan 32 km uzoqlikda joylashgan Ohangaron chiqindixonasida yer osti suvlari sathi 2-3 metrdan chuqur emas. Bu holat ekologik xavf darajasini oshiradi va chiqindilarni joylashtirish jarayonida zamonaviy gidroizolyatsion texnologiyalar qo'llanilishini taqozo etadi.

Shaharda har kuni taxminan 2000 tonna maishiy chiqindi hosil bo'ladi. Bu chiqindilar ko'p-qavatli uylar va noturar-joy fondida hosil bo'lgan chiqindilar uylar atrofidagi maxsus chiqindi maydonchalarida 0,75-1,1 m<sup>3</sup> hajmli konteynerlarda to'planadi. Keyin ular maxsus transport vositalari yordamida chiqindilarni qayta yuklash stansiyalariga (CHQYUS) olib boriladi. Hozirda Toshkent shahrida shunday uchta stansiya faoliyat ko'rsatadi: Yashnobod, Yakkasaroy va Yunusobod tumanlarida.

Bu stansiyalarda chiqindilar ma'lum darajada saralansada, jarayon markazlashmagan va samaradorligi past. Keyin chiqindilar yuk ko'tarish quvvati 16-20 tonna bo'lgan maxsus transportlar orqali Ohangaron chiqindixonasiga joylashtirish uchun yuboriladi. Bu jarayonda chiqindilar ikki marta transport vositasiga yuklanadi, ammo amalda saralash amalga oshirilmaydi, chiqindilarning deyarli 100 foizi avvalgi tarkibda poligonga yetkaziladi.

Toshkent shahridagi chiqindilarni boshqarish tizimi hozirgi paytda bir qator ilmiy va amaliy muammolarni namoyon etmoqda. Ular quyidagilardan iborat:

Amaldagi normativ bazaning (SanQvaM-0297) zamonaviy talablarga javob bermasligi;

Chiqindilar morfologiyasidagi o'zgarishlarni hisobga olmaslik;

Ikkilamchi xom ashyo bozorining yo'qligi va qayta ishlash infratuzilmasining yetishmasligi;

Poligonlarning ekotizimga yuklami va xavfli moddalar chiqishi bilan bog'liq ekologik xatarlar;

Moliyaviy va tashkiliy mexanizmlarning samarasizligi.

Tadqiqotlar asosida qattiq maishiy chiqindilar (QMCH)ning hosil bo'lish me'yorlarini aniqlash va asosiy ko'rsatkichlarini (massasi, hajmi va o'rtacha zichligi) baholash bo'yicha maxsus uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ushbu tavsiyalar faqat haqiqiy to'plangan va chiqindi mashinalari orqali chiqarib ketiladigan QMCH miqdorini aniqlashga mo'ljallangan bo'lib, tadqiqot quyidagi asosiy bosqichlarda amalga oshiriladi:

**Tadqiqot joylarini tanlash.** Aholisi 300 ming kishigacha bo'lgan shaharlarda aholi umumiy sonining 2 foizi, 300-500 ming kishigacha bo'lgan shaharlarda - 1 foizi, aholisi 500 ming kishidan ortiq shaharlarda esa - 0,5 foizini qamrab oladigan joylar tanlanadi.

**QMCH massasi va hajmini aniqlash.** QMCH to'planish me'yorlarini aniqlash, asosan, turar-joy fondi binolari uchun amalga oshiriladi. Shu sababli, tabiiy o'lchov ishlari yaxshilangan infratuzilmaga (suv ta'minoti, kanalizatsiya va markaziy isitish tizimiga) ega turar-joy binolari hamda madaniy-maishiy obyektlarda o'tkazildi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, QMCH miqdori va tarkibini aniqlash, tabiiy xronometraj o'lchovlarini o'tkazish va respublikaning shaharlari uchun o'lchov vaqti, usuli va hajmini belgilashga qaratilgan eksperimental usul ishlab chiqildi.

**QMCH to'planish ko'rsatkichlarini hisoblash.** Tadqiqot natijalari asosida chiqindilar hosil bo'lish me'yori kilogramm/aholi – hisob birligi va hajmiy ko'rsatkichlarda aniqlanadi.

Chiqindilarning miqdori va tarkibini baholash ikki yondashuv orqali amalga oshirildi: 1) Nazorat obyektlari bo'yicha; 2) Nazorat marshrutlari bo'yicha.

Nazorat obyekti - QMCH yig'iladigan joy (konteyner maydonchasi yoki maxsus belgilangan nuqta) bo'lib, u turar-joy yoki jamoat obyekti hududida joylashgan bo'ladi.

Nazorat marshruti esa - chiqindilarni yig'ish va tashish bo'yicha maxsus transport vositalari harakatlanadigan yo'nalishni anglatadi.

Tajriba jarayonida ikki turdagi nazorat obyektlari tanlandi:

Turar-joy fondi obyektlari (ko'p qavatli va yakka tartibdagi uylar);

Noturar-joy obyektlari (ishlab chiqarish va maishiy xizmat ko'rsatuvchi korxonalar, umumiy ovqatlanish nuqtalari, maktab, bolalar bog'chasi, mehmonxona va boshqalar).

Xronometraj ishlarining ketma-ketligi:

Bosqich 1. Chiqindilar yig'ish maydonchasini fotofiksatsiya qilish.

Bosqich 2. Konteyner platformasining holatini suratga olish.

Bosqich 3. Konteyner ichidagi chiqindilar hajmini o'lchov asboblari yordamida aniqlash.

Bosqich 4. O'lchov natijalarini dalolatnoma shaklida qayd etish.

Bosqich 5. Konteynerdagi chiqindilarni plyonka ustiga tushirish va komponentlarga ajratish.

Bosqich 6. Har bir komponent (qog'oz, shisha, plastmassa, oziq-ovqat chiqindilari, metall va h.k.) bo'yicha massani aniqlash, natijalarni yozib olish.

Bosqich 7. Har bir komponent alohida elektron tarozida tortish va massasi aniqlash.

Bosqich 8. Barcha ma'lumotlar yakuniy dalolatnoma va jadvallarga kiritish.

Barcha jarayonlar fotosurat va videolavhalar orqali qayd etildi, bu esa tadqiqot natijalarining ishonchligini oshirishga xizmat qildi.

### **QMCH to'planish me'yorlarini hisoblash usullari**

QMCHlarning hajm va massa bo'yicha to'planish me'yorlari quyidagi ketma-ketlikda aniqlanadi:

1. Bitta konteynerda to'plangan sutkalik QMCH hajmini aniqlash ( $V_{kont}$ ,  $m^3$ ):

$$V_{kont} = H * S, m^3 \quad (1)$$

bu yerda:

H – konteynerdagi chiqindilar balandligi (m);

S – konteynerning ichki yuzasi ( $m^2$ ).

2. Chiqindi yig'ish maydonchasidagi konteynerlar soni bittadan ko'p bo'lganda barcha konteynerlarda to'plangan sutkalik QMCH ning umumiy hajmi ( $V_{sut}$ ,  $m^3$ ):

$$V_{sut} = V_{kont1} + V_{kont2} + V_{kont3} + \dots + V_{kontn}, m^3 \quad (2)$$

bu yerda:

$V_{kont1}$ ,  $V_{kont2}$ ,  $V_{kont3}$ , ...  $V_{kontn}$  – chiqindi yig'ish maydonchasida joylashgan har bir konteynerda to'plangan sutkalik QMCH hajmlari.

Hisob-kitoblar chiqindi yig'ish maydonchasida joylashgan konteyner sonidan kelib chiqib amalga oshiriladi.

3. Bitta konteynerda to'plangan sutkalik QMCH og'irligini aniqlash ( $M_{kont}$ , kg):

$$M_{kont} = M_{ch} - M_b, kg \quad (3)$$

bu yerda:

$M_{ch}$  - chiqindili konteyner og'irligi, kg;

$M_b$  - bo‘sh konteyner og‘irligi, kg.

4. Chiqindi yig‘ish maydonchasida konteynerlar soni bittadan ko‘p bo‘lganda barcha konteynerlardagi QMCH ning umumiy og‘irligi ( $M_{kont}$ , kg):

$$M_{sut} = M_{kont1} + M_{kont2} + M_{kont3} + \dots + M_{kont n}, \text{ kg} \quad (4)$$

bu yerda:

$M_{kont1}$ ,  $M_{kont2}$ ,  $M_{kont3}$ ,  $M_{kont n}$  – chiqindi yig‘ish maydonchasida joylashgan har bir konteynerdagi to‘plangan sutkalik QMCH og‘irliklari.

Hisob-kitoblar chiqindi yig‘ish maydonchasida joylashgan konteyner sonidan kelib chiqib amalga oshiriladi.

5. Bir faslda kuzatuv davri davomida chiqindi yig‘ish maydonchasida to‘plangan QMCHning umumiy hajmini aniqlash ( $V_{mavsum}$ ,  $m^3$ ):

$$V_{mavsum} = V_{sut1} + V_{sut2} + \dots + V_{sut7}, m^3 \quad (5)$$

bu yerda:

$V_{sut1}$ ,  $V_{sut2}$ ,  $V_{sut7}$  – bir faslda kuzatuv davri davomida chiqindi yig‘ish maydonchasida to‘plangan sutkalik QMCH hajmlari.

6. Bir faslda kuzatuv davri davomida chiqindi yig‘ish maydonchasida to‘plangan QMCHning umumiy og‘irligini aniqlash ( $M_{mavsum}$ , kg):

$$M_{mavsum} = M_{sut1} + M_{sut2} + \dots + M_{sut7} \quad (6)$$

bu yerda:

$M_{sut1}$ ,  $M_{sut2}$ ,  $M_{sut7}$  – bir faslda kuzatuv davri davomida chiqindi yig‘ish maydonchasida to‘plangan sutkalik QMCH og‘irliklari.

QMCHlarning to‘planish me‘yorlarini aniqlash uchun uy-joy fondi va noturar joy obyektlari uchun alohida tasnif ishlab chiqildi. 1-jadval qattiq maishiy chiqindilarni (QMCH) yig‘ish, hisobga olish va me‘yorlashtirish tizimida turli obyektlarning chiqindi hosil bo‘lish xususiyatlarini aniq belgilaydi.

Bu ma‘lumotlar chiqindilarni:

- yig‘ish va tashish logistikasini to‘g‘ri rejalashtirish,
- konteynerlar soni va hajmini belgilash,
- qayta ishlash tizimini optimallashtirish,
- xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar faoliyatini iqtisodiy jihatdan asoslash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

## 1-jadval


### Uy-joy va noturar joy obyektlari turlarining tasnifi

№	Qattiq maishiy chiqindilarni yig‘ish obyektlari	Hisob birligi
1	Uy-joy fondi (ko‘p kvartirali va yakka tartibdagi turar joylar)	1 kishi (istiqomat qiluvchi)
2	Dala hovlilar	1 hovli (uchastka)
3	Ma‘muriy va boshqa muassasalar (tashkilotlar, ofislar, idoralar, banklar va h.k.)	1 xodim
4	Mehmonxonalar, umumiy yotoqxonalar, dam olish maskanlari va shunga o‘xshash obyektlar	1 o‘rin
5	Internatlar, mehribonlik uylari, qariyalar uylari va boshqa ijtimoiy muassasalar	1 o‘rin
6	Umumiy ovqatlanish korxonalar (kafe, restoran, oshxona, bar va h.k.)	1 o‘rin
7	Bolalar bog‘chalari, yaslilar va shunga o‘xshash muassasalar	1 o‘rin
8	Maktablar, kollejlar, oliy ta‘lim va boshqa o‘quv muassasalari	1 o‘quvchi (talaba)
9	Poliklinikalar	1 tashrif buyuruvchi
10	Shifoxonalar, sanatoriyalar, sihatgohlar va boshqa davolash-profilaktika muassasalari	1 yotoq o‘rni

11	Teatrlar, kinoteatrlar, konsert zallari, kutubxonalar, klublar va avtomat o'yin zallari	1 o'rin
12	Sartaroshxonalar, go'zallik salonlari va h k.	1 o'rin
13	Stadionlar, sport arenalari, sport maydonchalari va h k.	loyiha bo'yicha 1 o'rin
14	Bozorlar, supermarketlar, gipermarketlar, do'konlar, yarmarkalar, pavilyonlar, kiosklar va h k.	1 m <sup>2</sup> savdo maydonchasi
15	Dorixonalar	1 m <sup>2</sup> savdo maydonchasi
16	Avtomobil yoki chakana savdo joylari (savdo stoli va h k.)	1 savdo o'rni
17	Muzeylar, ko'rgazmalar va shunga o'xshash obyektlar	1 m <sup>2</sup> umumiy maydon
18	Sport, raqs va o'yin zallari	1 m <sup>2</sup> umumiy maydon
19	Ulgurji savdo bazalari, oziq-ovqat va sanoat mollari omborlari	1 m <sup>2</sup> umumiy maydon
20	Vokzallar, avtovokzallar, aeroportlar va shunga o'xshash obyektlar	1 m <sup>2</sup> umumiy maydon
21	Plyajlar	1 m <sup>2</sup> umumiy maydon
22	Maishiy xizmat uylari: aholiga xizmat ko'rsatish	1 m <sup>2</sup> umumiy maydon
23	Maishiy xizmat uylari (aholiga xizmat ko'rsatish nuqtalari)	1 m <sup>2</sup> umumiy maydon
24	Hammomlar, saunalar va shunga o'xshash obyektlar	1 m <sup>2</sup> umumiy maydon
25	Maishiy va elektron texnikalarni ta'mirlash ustaxonalari	1 ish o'rni
26	Avtoturargohlar, avtomobil yuvish shoxobchalari, ta'mirlash ustaxonalari, AYOQSHlar, garajlar va h k.	1 mashina-o'rni
27	Ommaviy tadbirlar o'tkazuvchi yuridik shaxslar (konsert, yig'in va h k.)	1000 qatnashuvchi

Dissertatsiyaning “**Eksperimental-tadqiqot qismi**” deb nomlangan **uchinchi** bobida Qattiq maishiy chiqindining to'planish me'yorlari bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar tahlili va tavsiflari berilgan.

Uy-joy fondidagi QMCH to'planish me'yorlari ko'p kvartirali turar joylar va yakka tartibdagi xonadonlar bo'yicha alohida hisoblab chiqildi. Bu jarayonda iqlim o'zgarishi darajasi asosiy mezon sifatida qabul qilindi. Ko'p yillik tadqiqotlar natijasida QMCHning yillik o'sish sur'ati o'rtacha 2,65 foiz ekanligi aniqlandi. 2-rasmda olib borilgan 7 kunlik tadqiqotlar asosida hisob birligida QMCHlarni hosil bo'lish ko'rsatkichlari, 3-rasmda SanQvaN № 0297-11 bo'yicha solishtirma tahliliy natijalar keltirilgan bo'lib, o'rtacha kun va yillar hisobida hisoblab chiqildi.



## 2-rasm. Yillik tadqiqot natijalari

Toshkent shahrida o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, turar joy fondida kishi boshiga to'g'ri keladigan QMCH miqdori suyuq chiqindilarni hisobga olmaganda

yillik hisobda **328,5 kg (1,6 m<sup>3</sup>)** ni tashkil etadi, bu esa kuniga o‘rtacha **0,9 kg** chiqindi hosil bo‘lishini anglatadi.

Noturar joy obyektlari uchun aniqlangan me‘yorlar quyidagicha:


Ma‘muriy binolar va idoralar - 1 xodimga 73 kg/yil, zichlik 122,2 kg/m<sup>3</sup>.

Mehmonxonalar va dam olish maskanlari - 1 o‘ringa 187 kg/yil, zichlik 235,6 kg/m<sup>3</sup>.

Umumiy ovqatlanish muassasalari - 1 o‘ringa 241 kg/yil, zichlik 286,6 kg/m<sup>3</sup>.


Bolalar bog‘chalari - 1 o‘ringa 121 kg/yil, zichlik 356,0 kg/m<sup>3</sup>.

Shifoxonalar - 1 yotoq o‘rniga 376 kg/yil, zichlik 225,0 kg/m<sup>3</sup>.



**3-rasm. Tadqiqot natijalari va SanQvaN № 0297-11 bo‘yicha solishtirma tahlili**

Chiqindilarning zichligi 4-rasmda keltirilgan.



**4-rasm. Republikaning hududlaridagi QMCHning o‘rtacha zichligi**  
Dissertatsiyaning “Qattiq maishiy chiqindilarning morfologik tarkibi bo‘yicha tahlillari” deb nomlangan to‘rtinchi bobida qattiq maishiy chiqindining

miqdoriy ko'rsatkichlari, morfologik tarkibini aniqlash, mavsumiy o'lchovlarini asoslash, asosiy tarkibiy qismlaridan foydalanish (qayta ishlash) bo'yicha ko'rsatmalar, qayta ishlash texnologiyalarini tanlash jarayoni eksperimental tadqiqot qilish keltirilgan.

Jahon tajribasi tahlil qilinib, ushbu ish doirasida moslashtirilgan uslubiy tavsiyalar ishlab chiqildi.

QMCHning har bir tarkibiy qismi A quyidagi formula bo'yicha aniqlandi:


$$A = \frac{C}{B} \times 100, \% \quad (7)$$

Bu yerda:

A – chiqindilarning tarkibiy qismi ulushi (%); S – bir xil tarkibdagi chiqindilar massasi (kg); V – chiqindilarning umumiy massasi (kg); 100 – foiz ko'rsatkichini ifodalash uchun ko'paytuvchi.

QMCH qayta ishlash inshootlarini loyihalashni boshlashdan oldin, QMCHning morfologik tarkibini va ularning to'planish sur'atlarini ham aniqlab olish kerak bo'ladi.

Maishiy chiqindilarni tarkibining yillik tadqiqot natijalari **5-rasmda** keitirilgan:



**5-rasm. QMCHlarning morfologik tarkibining yillik tadqiqot natijalari**


